O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

ATABAYEV ODILJON XUSNIDDIN O‘G‘LI

NOCHIZIQLI MANBA VA YUTILISHGA EGA NOCHIZIQLI DIFFUZIYA JARAYONLARINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH

05.01.07-Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui
(fizika-matematika fanlari)

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO‘K: 519.957

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

ATABAYEV ODILJON XUSNIDDIN O‘G‘LI

NOCHIZIQLI MANBA VA YUTILISHGA EGA NOCHIZIQLI DIFFUZIYA JARAYONLARINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH

**05.01.07-Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui
(fizika-matematika fanlari)**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/FM1214 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Z.M.Bobur nomidagi Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus(rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ik-fizmat.nuu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Aripov Mersaid** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Sadullayeva Shaxlo Azimbayevna** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Xaydarov Abdugappar fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "___" _____ soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi 4-uy. Tel.: (+99871) 227-12-24, faks: (+99871) 246-53-21, 246-02-24, e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi 4-uy. Tel.: (+99871) 246-02-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "___" _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil "___" ______ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

B.F.Abduraximov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o'rinbosari, f.-m.f.d., professor

Z.R.Raxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.d. professor

A.S.Matyakubov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda neft-gaz va ishlab chiqarish sohalarida fizik, biologik, mexanik, ekologik, seysmologik kabi murakkab nochiziqli jarayonlarni matematik modellashtirish, ularni sonli-analitik tadqiq etish usullarini takomillashtirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Bu borada xususiy hosilali differensial tenglamalar va ularning sistemalari yordamida tasvirlanuvchi murakkab nochiziqli matematik modellashtirish masalalari va ularni sonli tadqiq etish usullari hamda katta hajmli hisoblashlarni amalga oshirish uchun samarali algoritmlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra tabiiy jarayonlarni matematik jihatdan tavsiflash va nochiziqli matematik modellarni amaliyotga joriy etish uchun samarali sonli yechish usullarni yaratish va takomillashtirish, nochiziqli diffuziya jarayonlarining matematik modellarini qurish, nochiziqli matematik modellar ustida murakkab hisoblashlarni amalga oshirish algoritmlari va dasturiy ta'minotini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda biologik populyatsiya, reaksiya-diffuziya va termoyadro kabi jarayonlarning matematik modellarini tadqiq etishda sonli yechish usullarini ishlab chiqish va qo'llashga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunda, energetika, tibbiyot hamda neft va gaz sohalarida amaliy tatbiqqa ega bo'lgan reaksiya-diffuziya, issiqlik o'tkazuvchanlik, filtratsiya, biologik populyatsiya kabi jarayonlarni sonli modellashtirish bo'yicha tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Shunga ko'ra, nochiziqli matematik modellarni o'rganishda, yechimlarni sonli hisoblash va vizuallashtirish uchun algoritm va dasturiy ta'minot ishlab chiqish va natijalarni amaliyotga tatbiq etish maqsadli ilmiy tadiqotlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda fundamental fanlarni rivojlantirish bilan bir qatorda olingan ilmiy natijalarni amaliyotga tatbiq etishga, ayniqsa amaliy ahamiyati katta bo'lgan yangi innovatsion texnologiyalarni yaratish, nochiziqli masalalarni matematik modellashtirishda, ularni sonli-analitik yechish usullarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, chiziqsiz matematik modellarning sifat xossalarini o'rganish usullarini ishlab chiqish, yechimlarning vaqt bo'yicha aniq baholarini topish, chiziqsiz effektlarni aniqlash, tejamkor sonli sxemalar ishlab chiqish; chiziqsiz jarayonlarning matematik modellarini o'rganishga yordam beruvchi amaliy dasturlar majmuini yaratish bo'yicha salmoqli natijalarga erishildi. "Funksional analiz, algebra, differensial tenglamalar, matematik fizika, matematik modellashtirish, hisoblash matematikasi va diskret matematika, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika"[1] kabi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha xalqaro standartlar darajasidagi ilmiy izlanishlar olib borish O'zR FA V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Qaror ijrosini ta'minlashda nochiziqli manba va yutilishga ega nochiziqli diffuziya jarayonlarini ifodalovchi parabolik tipdagi tenglamalar va sistemalar yechimlarining asimptotikalarini aniqlash, baholarini olish, sifat xossalarini tadqiq

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4708-son qarori.

etish usullarini ishlab chiqish, sonli yechish dasturlarini yaratish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni, 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son “Matematika sohasidagi ta‘lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019-yil 27-apreldagi PQ-3682-son “Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliyotga joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori va 2021-yil 1-apreldagi PF-6198-son “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmonlari, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlantirishning IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahonda nochiziqli tenglamalar va tenglamalar sistemalari yechimlari sifat xossalarini o‘rganish hamda sonli yechimlarini tahlil qilish bo‘yicha bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. Mazkur tadqiqotlar natijalari asosida turli sohalardagi nochiziqli jarayonlarni ifoda etuvchi matematik modellar, xususan nochiziqli manba va yutilishga ega nochiziqli diffuziya tenglamalari uchun yangi effektlar olingan. Keyinchalik, A.A.Samarskiy, V.A.Galaktionov, J.L.Vazquez, S.P.Kurdyumov, A.P.Mixaylovlarning ishlarida yechimning asimptotik xossalari o‘rganilgan. Shuningdek, A.Friedman, J.Mcleod, M.Escobedo, M.A.Herrero, H.A.Levine, K.Deng, P. Souplet, N.Bedjaoui, Zh. Li, W. Du, H. Li, Ch.Mu boshqalar global yechim mavjudlik shartlarini aniqladilar. Ilmiy tadqiqotlarning asosiy e’tibori global yechimning mavjudligi, chekli vaqtda chegaralanmagan yechim xossalarini o‘rganishga qaratilgan edi. Ulardan tashqari Wiegner M., Winkler M., Gage E., Angenent S., Jin Ch., Yin J., Yunzhu Gao, Qiu Meng, Yingjia Guo, Zhi-wen Duan, Li Zhou tomonidan yechimlarning asimptotikasi, uning chegaralanmaganligi, chekli tezlikda tarqalish effekti va issiqlik tarqalishining fazoviy lokallashishi, manba yoki yutilishga ega nochiziqli muhitlarda ta’sirlanish jarayonining chekli vaqtda mavjud bo‘lishi kabilar aniqlandi.

O‘zbekistonda turli jarayonlarning matematik modellarini tasvirlovchi parabolik turdagi nochiziqli masalalar bilan B. M. Xujayarov, N. Muhitdinov, A. S. Rasulov, M. Aripov, J. Toxirov, N. Ravshanov, Sh. Sadullayeva, A. Xaydarov, A.Xasanov, B.Babajanov, A. Matyakubov, F.Kabiljanova, Z. Raxmonov va ularning shogirdlari shug‘ullanishgan. Ularning asosiy ishlari divergent va nodivergent tenglama va tenglamalar sistemasi bilan ifodalanadigan nochiziqli diffuziya masalasi yechimlari xossalarini sonli o‘rganishga bag‘ishlanadi hamda bu metodlarni filtratsiya, diffuziya, issiqlik o‘tkazuvchanlik jarayonlarini modellashtirishga bag‘ishlangan. Ular tomonidan avtomodel tahlil asosida tabiatshunoslikning turli sohalarida uchraydigan jarayonlarni ifodalovchi nochiziqli masalalar yechimlarining sifat xossalari tadqiq etilgan va sonli natijalar olib tahlillar keltirilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, OT-F4-30 “Ikki marta nochiziqli kross sistemaning konvektiv ko‘chish, o‘zgaruvchan zichlik, manba yoki yutish ta’siridagi sifat xossalarini tadqiq qilish” ilmiy tadqiqot loyihasi va AL-9224104601 “Nochiziqli, divergent va nodivergent ko‘rinishdagi parabolik tenglama va sistemalar bilan tasvirlanuvchi jarayonlarni matematik modellashtirish” mavzusidagi (amaliy) ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘zgarmas yoki o‘zgaruvchan zichlikli, nochiziqli manba va yutilishga ega bo‘lgan muhitlarda parabolik tipdagi tenglamalar va ularning sistemalari bilan tavsiflanuvchi nochiziqli matematik modellarning sifat xossalarini sonli hamda analitik tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o‘zgarmas yoki o‘zgaruvchan zichlikli, nochiziqli manba va yutilishga ega nochiziqli diffuziya jarayonlarini ifodalovchi nochiziqli model yechimlarining vaqt bo‘yicha globallik hamda global bo‘lmaslik shartlarini topish;

o‘zgarmas yoki o‘zgaruvchan zichlikli, nochiziqli manba va yutilishga ega nochiziqli diffuziya sistemalari yechimlarining sonli hisoblashlarda muhim bo‘lgan quyi va yuqori baholarini olish;

o‘zgarmas yoki o‘zgaruvchan zichlikli, nochiziqli manba va yutilishga ega nochiziqli diffuziya jarayonlarini ifodalovchi nochiziqli masalalarni sonli hisoblash uchun zarur bo‘lgan boshlang‘ich yaqinlashishni topish;

o‘zgarmas yoki o‘zgaruvchan zichlikli, nochiziqli manba va yutilishga ega nochiziqli diffuziya jarayonlarning matematik modellari sifat xossalarini o‘rganish uchun sonli hisoblash sxemalarini qurish;

o‘zgarmas yoki o‘zgaruvchan zichlikli, nochiziqli manba va yutilishga ega nochiziqli diffuziya masalasini yechish va ularni vizuallashtirish uchun dasturiy vositalar majmuini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti o‘zgarmas yoki o‘zgaruvchan zichlikli, nochiziqli manba va yutilishga ega parabolik tenglama va ularning sistemalari bilan tavsiflanuvchi diffuziyaning nochiziqli jarayonlari olingan.

Tadqiqotning predmeti o‘zgarmas yoki o‘zgaruvchan zichlikli, nochiziqli manba va yutilishga ega nochiziqli diffuziya jarayonlari matematik modellari sifat xossalarini tadqiq qilish, sonli yechish sxemalarini qurish, dasturiy majmualarini yaratishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Ushbu dissertatsiya ishida nochiziqli ajratish algoritmi, avtomodel va taqribiy avtomodel usullari, etalon tenglamalar usuli, yechimlarni taqqoslash teoremalari, ayirmali sxemalar, iteratsiya va haydash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘zgarmas yoki o‘zgaruvchan zichlikli, nochiziqli manba va yutilishga ega nochiziqli diffuziya jarayonlarini ifodalovchi nochiziqli model yechimlarining vaqt bo‘yicha globallik hamda global bo‘lmaslik shartlari topilgan;

o‘zgarmas yoki o‘zgaruvchan zichlikli, nochiziqli manba va yutilishga ega nochiziqli diffuziya sistemalari yechimlarining sonli hisoblashlarda muhim bo‘lgan quyi va yuqori baholari olingan;

o‘zgarmas yoki o‘zgaruvchan zichlikli, nochiziqli manba va yutilishga ega nochiziqli diffuziya jarayonlarini ifodalovchi nochiziqli masalalarni sonli hisoblash uchun zarur bo‘lgan boshlang‘ich yaqinlashishlar topilgan;

o‘zgarmas yoki o‘zgaruvchan zichlikli, nochiziqli manba va yutilishga ega nochiziqli diffuziya jarayonlarining matematik modellari sifat xossalarini o‘rganish uchun sonli hisoblash sxemalari qurilgan;

o‘zgarmas yoki o‘zgaruvchan zichlikli, nochiziqli manba va yutilishga ega nochiziqli diffuziya masalasini yechish va ularni vizuallashtirish uchun dasturiy vositalar majmui ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o‘zgarmas yoki o‘zgaruvchan zichlikli, nochiziqli manba va yutilishga ega nochiziqli diffuziya masalalari yechimlari uchun quyi va yuqori baholar olingan;

o‘zgarmas yoki o‘zgaruvchan zichlikli, nochiziqli manba va yutilishga ega nochiziqli diffuziya masalalar uchun sonli yechimlar qurilgan va dasturlar majmui yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya ishida olingan tasdiqlar solishtirish teoremalari va maksimum prinsipi asosida qat’iy isbotlangan hamda hisoblash eksperimenti natijalari bilan tasdiqlangan, olingan natijalarning saqlanish qonunlariga muvofiqligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati avtomodel yechimni qurish usullari, asimptotik formulalar, sonli yechish sxemalari va algoritmlaridan viruslarning tarqalishi, gaz va suyuqliklar filtratsiyasi, diffuziya, issiqlik o‘tkazuvchanlik jarayonlari modellarini sonli va analitik yechishda qo‘llanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati iteratsion jarayonlar qurilganligi, sonli hisoblash sxemasi va dasturiy ta’minot yaratilganligi, ulardan nochiziqli issiqlik o‘tkazuvchanlik, gaz va suyuqliklar filtratsiyasi, diffuziya, viruslar tarqalishi, biologik populyatsiya masalalari uchun samarali hisoblash tajribalarini o‘tkazishga imkon berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zgarmas yoki o‘zgaruvchan zichlikli, nochiziqli manba va yutilishga ega nochiziqli diffuziya jarayonlari masalalarini matematik va sonli modellashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

o‘zgarmas yoki o‘zgaruvchan zichlikli, nochiziqli manba va yutilishga ega nochiziqli diffuziya sistemalari yechimlarining quyi va yuqori baholaridan OT-F4-88 “Ikkinchi va yuqori tartibdagi aralash tipdagi tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalarni tadqiq etish” mavzusidagi fundamental grant loyihasida vertikal yarim yo‘lakda singulyar koeffitsientli va spectral parametrli buziluvchan tenglama uchun Dirixle masalasini yechishda foydalanilgan. (V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika institutining 2024-yil 5-dekabrdagi 02/437-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalarni qo'llash vertikal yarim yo'lakda singulyar koeffitsientli va spektral parametrli buziluvchan tenglama uchun Dirixle masalasining aniq yechimini topish imkonini bergan.

o'zgarmas yoki o'zgaruvchan zichlikli, nochiziqli manba va yutilishga ega nochiziqli diffuziya jarayonlarini ifodalovchi nochiziqli masalalarni sonli hisoblash uchun zarur bo'lgan boshlang'ich yaqinlashishni topish ilmiy natijasidan OT-F4-04 "Spektral usulni matritsaviy nochiziqli evolyusion tenglamalarni yechishga tadbiqlari, Yurak-qon tomir tizimining biomexanikasi" mavzusidagi fundamental grant loyihasida yuklangan hadli Kaup sistemasiga qo'yilgan Koshi masalasini davriy funksiyalar sinfida yechishda foydalanilgan. (Urganch davlat universitetining 2024-yil 6-dekabrdagi 04-235/2-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalardan foydalanish yuklangan hadli Kaup sistemasi uchun qo'yilgan Koshi masalasining davriy yechimlarining aniq ko'rinishlarini aniqlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot ishi natijalari 11 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 7 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 1 tasi xorijiy (Scopus, Q2) va 5 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan. Shuningdek, EHM uchun yaratilgan dasturning rasmiy ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risida 2 ta mualliflik guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 96 betdan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Nochiziqli manba va yutilishga ega nochiziqli parabolik tenglama yechimlarining xossalari"** deb nomlangan birinchi bobida nochiziqli manba va yutilishga ega nochiziqli diffuziya modeli yechimlarining global mavjudligi, chekli vaqt ichida chegaralanmagan bo'lishi va asimptotik harakati kabi sifat xossalari ahamiyati muhokama qilingan.

1.1-paragrafda populyatsiya dinamikasi, nochiziqli muhitda issiqlik o‘tkazuvchanlik va reaksiya-diffuziya jarayonlari nochiziqli manba va yutilishga ega ikki karra nochiziqli buziluvchan parabolik tenglama bilan modellashtirilishi mumkin. Xususan, ushbu

$$\frac{\partial u}{\partial t} = \nabla\left(u^{m-1}\left|\nabla u^k\right|^{p-2}\nabla u\right) + u^{q_1} - u^{q_2}, \quad x \in \Omega, \quad t > 0, \tag{1}$$

$$u(t,x) = 0, \quad x \in \partial\Omega, \quad t > 0, \tag{2}$$

$$u(0,x) = u_0(x), \quad x \in \Omega, \tag{3}$$

ikki karra nochiziqli masala reaksiya-diffuziya jarayonlarini ifodalaydi, bu yerda $n,\ m,k > 1,\ p > 2,\ q_1 > 1,\ q_2 \geq 1,\ q_1 \neq q_2$ va $\Omega \subset R^N$ esa silliq chegara $\partial\Omega$ bilan chegaralangan sohadir. Yuqoridagi masaladagi boshlang‘ich shart $u_0(x)$ berilgan notrivial, nomanfiy, chegaralangan va mos ravishda silliq funksiyadir.

1.2-paragrafda suyuqlik dinamikasi, biologik populyatsiya, iqtisodiy matematika sohalaridagi nochiziqli modellashtirish masalalariga oid tadqiq etilgan ishlar va olingan natijalar sharhi bayon qilingan.

I bobning 3-paragrafida natijalarni kelgusida taqdim etish uchun zarur bo‘lgan ba’zi yordamchi tasdiqlar va ta’riflar keltirilgan.

1-ta’rif. Faraz qilaylik, $T > 0$, $Q_T = \Omega \times (0,T)$, $E = \{u \in L^{2q_1}(Q_T) \cup L^{2q_2}(Q_T); u_t, \nabla u \in L^2(Q_T)\}$ va $E_0 = \{u \in E; u = 0 on \partial\Omega\}$ bo‘lsin. Agar ixtiyoriy nomanfiy $\varphi \in E_0$ funksiya uchun

$$\iint_{Q_T} u_t \varphi dxdt + \iint_{Q_T} \left|\nabla u^k\right|^{p-2} \nabla u^m \nabla \varphi dxdt \geq (\leq) \iint_{Q_T} u^{q_1}\varphi - u^{q_2}\varphi dxdt$$

$$u(x,t) \geq (\leq) 0 \ on\ \partial\Omega \times (0,T)\ and\ u(x,0) \geq (\leq) u_0(x)\ a.e.\ in\ \Omega.$$

o‘rinli bo‘lsa, u holda nomanfiy $u(t,x) \in E$ funksiya (1) masalaning Q_T sohadagi umulashgan yuqori (quyi) yechimi deyiladi.

2-ta’rif. Agar $u(t,x)$ (1)-(3) masalaning ham umulashgan yuqori, ham umulashgan quyi yechimi bo‘lsa, u holda u umumlashgan yechim deyiladi.

3-ta’rif. Agar $u(t,x)$ har bir $T < \infty$ da (1)-(3) ning Q_T sohadagi umulashgan yechimi bo‘lsa, u holda u global yechim deyiladi.

4-ta’rif. Agar (1) tenglama $u(t,x) > 0$ va $\left|\nabla u^k\right| > 0$ da parabolik tipga tegishli bo‘lib, $u(t,x) = 0$ yoki $\left|\nabla u^k\right| = 0$ da oddiy differensial tenglamani ifodalasa, u holda (1) tenglama “buziluvchan” deyiladi.

5-ta’rif. Agar shunday $T < \infty$ topilsaki,

$$\lim_{t \to T^-} \left\|u(t)\right\|_{L^\infty(\Omega)} = \infty$$

shart bajarilsa, u holda (1) ko‘rinishdagi nochiziqli parabolik tenglamaning yechimi $u(t,x)$chegaralanmagan deyiladi.

1-teorema. *Faraz qilaylik, $u_1(t,x)$ va $u_2(t,x)$ quyidagi masalaning mos ravishda quyi va yuqori yechimlari bo‘lsin*

$$\frac{\partial u}{\partial t} = \nabla\cdot\left(u^{m-1}\left|\nabla u^k\right|^{p-2}\nabla u\right) + u^{q_1} - u^{q_2}, \quad x\in\Omega, t>0,$$

$$u(t,x)=0,\ x\in\partial\Omega,\ t>0$$

$$u(0,x)=u_0(x),\ x\in\Omega$$

Agar, Ω *sohada* $u_1(0,x)\le u_2(0,x)$ *shart bajarilsa, u holda barcha* $t>0$ *va* $x\in\Omega$ *da* $u_1(t,x)\le u_2(t,x)$ *o'rinli bo'ladi.*

Dissertatsiyaning **"Nochiziqli manba va yutilishga ega nochiziqli diffuziya jarayonlarini matematik modellashtirish"** deb nomlanuvchi ikkinchi bobi o'zgarmas yoki o'zgaruvchan zichlikli nochiziqli manba va yutilishga ega nochiziqli diffuziya masalasi yechimi baholarini olish va sonli yechishga bag'ishlangan.

II bobning 1-paragrafida (1)-(3) masala yechim sifat xossalarini o'rganishda $\left(m+k(p-2),q_1,q_2\right)$ parametrlar oraliqlari quyidagi 3 qismga ajratilgan:

(i) $q_1<\max\{m+k(p-2),q_2\}$;

(ii) $q_1=\max\{m+k(p-2),q_2\}$;

(iii) $q_1>\max\{m+k(p-2),q_2\}$.

2-teorema. *Agar* $q_1<\max\{m+k(p-2),q_2\}$ *bo'lsa, u holda (1)-(3) masalaning barcha yechimlari chegaralangan bo'ladi.*

3-teorema. *Agar* $q_1=m+k(p-2)$, $q_1>q_2$ *va* $\lambda_1\ge 1$ *bo'lsa, u holda (1)-(3) masalaning barcha yechimlari global bo'ladi.*

4-teorema. *Agar quyidagi shartlardan*

- $q_1=m+k(p-2)>q_2$ va $\lambda_1<1$
- $q_1>\max\{m+k(p-2),q_2\}$

biri bajarilsa, u holda (1)-(3) masala global va noglobal yechimlarga ega.

5-teorema. *Agar* $q_1>\max\{m+k(p-2),q_2\}$ *shart bajarilganda (1)-(3) masalaning yechimi* $u(t,x)$ *chekli* T *vaqt ichida chegaralanmagan bo'lsa, u holda shunday musbat* c *son mavjudki, quyidagi ifoda o'rinli bo'ladi:*

$$\max_{\Omega} u(t,x)\ge c(T-t)^{-\frac{1}{q_1-1}} \quad agar \quad t\to T.$$

6-teorema. *Agar* $q_1>m+k(p-2)\ge q_2$ *shart bajarilganda (1)-(3) masalaning yechimi* $u(t,x)$ *chekli* T *vaqt ichida chegaralanmagan bo'lsa, u holda shunday musbat* C *son mavjudki, quyidagi baho o'rinli*

$$\max_{\Omega} u(t,x)\le C(T-t)^{-\frac{1}{q_1-1}} \quad agar \quad t\to T.$$

II bobning 2-paragrafida ushbu o'zgaruvchan zichlikli nochiziqli manba va yutilishga ega ikki karra nochiziqli parabolik tenglama qaralgan

$$\frac{\partial u}{\partial t} = \nabla\left(|x|^n u^{m-1}\left|\nabla u^k\right|^{p-2}\nabla u\right) + u^{q_1} - u^{q_2},\ x\in\Omega,\ t>0, \quad (4)$$

$$u(t,x)=0,\ x\in\partial\Omega,\ t>0, \quad (5)$$

$$u(0,x)=u_0(x),\ x\in\Omega, \tag{6}$$

bu yerda $n,\ m,k>1,\ p>2,\ q_1>1,\ q_2\geq 1,\ q_1\neq q_2$ va $\Omega\subset R^N$ esa silliq chegara $\partial\Omega$ bilan chegaralangan sohadir. Bu yerda $u_0(x)$ berilgan notrivial, nomanfiy, chegaralangan va mos ravishda silliq funksiyadir.

7-teorema. *Agar* $n<p$ *va* $q_1<\max\{m+k(p-2),q_2\}$ *bo'lsa, barcha nomanfiy yechimlari global bo'ladi.*

8-teorema. *Agar* $n<p$ *va* $q_1=m+k(p-2)>q_2$ *bo'lsa, u holda (4)-(6) masalaning global va chegaralanmagan yechimlari mavjud.*

9-teorema. *Agar* $n<p$ *va* $q_1>\max\{m+k(p-2),q_2\}$ *bo'lsa, u holda (4)-(6) masalaning yetarlicha katta boshlang'ich shartlardagi har qanday nomanfiy yechimi, chekli vaqtda chegaralanmagan bo'ladi.*

2.3-paragraf esa o'zgarmas va o'zgaruvchan zichlikli nochiziqli manba va yutilishga ega nochiziqli diffuziya jarayonlarini matematik modellashtirishga bag'ishlangan.

1 o'lchovli hol. Dastlab nochiziqli diffuziya masalasi 1 o'lchovli hol $x\in[0,L]$ va $t>0$ da qaralgan bo'lib berilgan masala quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi

$$\frac{\partial u}{\partial t}=\frac{\partial}{\partial x}\left(u^{m-1}\left|\frac{\partial u^k}{\partial x}\right|^{p-2}\frac{\partial u}{\partial x}\right)+u^{q_1}-u^{q_2},\quad x\in(0,L),\quad t>0, \tag{7}$$

$$u(t,0)=0,\quad u(t,L)=0,\quad t\geq 0, \tag{8}$$

$$u(0,x)=u_0(x),\quad x\in[0,L], \tag{9}$$

Masalani sonli yechish uchun sonli sxema va algoritmlar ishlab chiqilgan. Hisoblash uchun x va t bo'yicha to'r qurilib

$$\bar{\omega}_h=\{x_i=ih,\ h>0,\ i=0,1,...,n,\ hn=L\},\ \bar{\omega}_\tau=\{t_j=j\tau,\ \tau>0,\ j=0,1,...,m,\ \tau m=T\}$$

,

approksimatsiya qilingan va quyidagi masala bilan almashtirilgan

$$\begin{cases}\dfrac{y_i^{j+1}-y_i^j}{\tau}=\dfrac{1}{h^2}\left[P_{i+1}\left(y^{j+1}\right)\left(y_{i+1}^{j+1}-y_i^{j+1}\right)-P_i\left(y^{j+1}\right)\left(y_i^{j+1}-y_{i-1}^{j+1}\right)\right]+f_i\left(y^{j+1}\right),\\ i=1,2,...,n-1;\ j=0,1,...,m-1\\ y_i^0=u_o(x_i),\ i=0,1,...,n\\ y_0^j=0,\quad j=1,2,...,m\\ y_n^j=0,\quad j=1,2,...,m\end{cases}$$

Bu yerda P_{i+1} va P_i diffuziya koeffitsientini ifodalovchi nochiziqli hadlardir. Bu hadlar mos ravishda quyidagi formulalar yordamida hisoblanadi

$$P_{i+1}\left(y^{j+1}\right)=\frac{1}{2}\left[\left(y_i^{j+1}\right)^{m-1}\left|\frac{\left(y_{i+1}^{j+1}\right)^k-\left(y_i^{j+1}\right)^k}{h}\right|^{p-2}-\left(y_{i+1}^{j+1}\right)^{m-1}\left|\frac{\left(y_i^{j+1}\right)^k-\left(y_{i-1}^{j+1}\right)^k}{h}\right|^{p-2}\right]$$

$$P_i\left(y^{j+1}\right)=\frac{1}{2}\left[\left(y_{i-1}^{j+1}\right)^{m-1}\left|\frac{\left(y_i^{j+1}\right)^k-\left(y_{i-1}^{j+1}\right)^k}{h}\right|^{p-2}-\left(y_i^{j+1}\right)^{m-1}\left|\frac{\left(y_{i-1}^{j+1}\right)^k-\left(y_{i-2}^{j+1}\right)^k}{h}\right|^{p-2}\right]$$

Nochiziqli hadlarni chiziqlashtirish quyidagi usullarda amalga oshirildi (qarang 1-jadval)

1-jadval.

Nochiziqli hadlarni chiziqlilashtirish

#	Nochiziqli had	Chiziqlashtirish	Nochiziqli had	Chiziqlashtirish
1	u^{q_1} - manba	Nyuton	u^{q_2} - yutilish	Pikar
2	u^{q_1} - manba	Nyuton	u^{q_2} - yutilish	Nyuton
3	u^{q_1} - manba	Pikar	u^{q_2} - yutilish	Pikar
4	u^{q_1} - manba	Pikar	u^{q_2} - yutilish	Nyuton

Mazkur jadvaldagi 1-holat, ya’ni manba va yutilish hadidagi nochiziqliklar mos ravishda Nyuton va Pikar metodlari yordamida chiziqli holatga keltiriladi

$$f_i\left(y^{j+1}\right)=q_1\left(y_i^j\right)^{q_1-1}\left(y_i^{j+1}-y_i^j\right)+\left(y_i^j\right)^{q_1}-\left(y_i^j\right)^{q_2}$$

So‘ngra quyidagiga ega bo‘linadi

$$\frac{y_i^{j+1,s+1}-y_i^j}{\tau}=\frac{1}{h^2}\left[P_{i+1}(y^{j+1,s})(y_{i+1}^{j+1,s}-y_i^{j+1,s})-P_i(y^{j+1,s})(y_i^{j+1,s}-y_{i-1}^{j+1,s})\right]+f_i(u^{j+1,s}),$$

bunda iteratsion jarayon $\max_i\left|y_i^{j+1,s+1}-y_i^{j+1,s}\right|<\varepsilon$ shart bajarilgunicha davom etadi.

Izoh. *Barcha hisoblashalarda aniqlik $\varepsilon=10^{-3}$ sifatida olingan.*

Yechimning tegishli dastlabki yaqinlashishlarini topish juda muhimdir. Sonli hisoblashlarda boshlang‘ich yaqinlashish sifatida quyidagicha olingan.

$$u_0(x)=\left(T+(q_1-1)t\right)^{-\frac{1}{q_1-1}}A\left(a-b\xi^{\frac{p}{p-1}}\right)_+^{\frac{p-1}{m-1+k(p-2)}},\ \xi=r\tau^{-\frac{1}{p}},$$

$$\tau(t)=\begin{cases}\dfrac{\left(T+(q_1-1)t\right)^{-\frac{m+k(p-2)-q_1}{q_1-1}}}{q_1-\left(m+k(p-2)\right)} & \text{if } m+k(p-2)\neq q_1\\[2ex] \dfrac{1}{q_1-1}\ln\left(T+(q_1-1)t\right) & \text{if } m+k(p-2)=q_1\end{cases},$$

$$b=\frac{m-1+k(p-2)}{p}\left(\frac{1}{A^{m-1+k(p-2)}k^{p-2}p}\right)^{\frac{1}{p-1}},\quad a>0$$

Parametrlarning turli qiymatlarida (7)-(9) masala uchun olingan sonli natijalar. Turli parametr qiymatlari nochiziqli diffuziya va manba hadlari tarqalish tezligiga qanday ta’sir etayotganini ko‘rish mumkin.



m=1.4, k=1.0, p=2.2, q_1=2.6, q_2=1.4 m=1.1, k=1.1, p=2.1, q_1=2.1, q_2=1.1

1-rasm. 1 o‘lchovli holatda (1)-(3) masalaning sonli yechimi.

2-rasmda o‘zgarmas zichlikli holatda jarayon kechishining natijalari tasvirlangan bo‘lsa, 3-rasmda o‘zgaruvchan zichlikli holatni ifodalaydi. 4-rasmda jarayon 2 o‘lchovli holatdagi olingan sonli natijalarni vizuallashtiradi.



m=1.3, k=3.0, p=2.5, q_1=2.2, q_2=3.4 m=1.5, k=3.5, p=2.4, q_1=2.1, q_2=5.4

2-rasm. 1 o‘lchovli holatda (1)-(3) masalaning sonli yechimi.



n=1, m=1.4, k=1.1, p=2.1, q_1=2.3, q_2=1.1 n=1, m=1.3, k=3.0, p=2.5, q_1=2.2, q_2=3.5

3-rasm. 1 o‘lchovli holatda (4)-(6) masalaning sonli yechimi.



m=1.4, k=1.0, p=2.2, q_1=2.6, q_2=1.4 m=1.5, k=3.5, p=2.4, q_1=2.1, q_2=5.4

4-rasm. 2 o‘lchovli holatda (1)-(3) masalaning sonli yechimi.

Hisoblash natijalari tanlangan metod va boshlang‘ich yaqinlashish yaxshi tanlanganini bildirib, 3 ta iteratsiyadan so‘ng yaqinlashish sodir bo‘ldi.

Dissertatsiyaning III bobi **“Nochiziqli manba va yutilishga ega nochiziqli parabolik sistemalar bilan ifodalangan nochiziqli diffuziya jarayonlarini matematik modellashtirish”**ga bag‘ishlangan. Unda o‘zgarmas yoki o‘zgaruvchan zichlikli nochiziqli manba va yutilishga ega nochiziqli diffuziya jarayonlarini ifodalovchi parabolik sistemalar qaralgan.

3.1 paragrafda ushbu

$$\begin{aligned}
&\frac{\partial u}{\partial t}=\nabla\left(u^{m_1-1}\left|\nabla u^{k_1}\right|^{p_1-2}\nabla u\right)+v^{q_1}-\alpha_1 u^{r_1}, \quad x\in\Omega, t>0,\\
&\frac{\partial v}{\partial t}=\nabla\left(v^{m_2-1}\left|\nabla v^{k_2}\right|^{p_2-2}\nabla v\right)+u^{q_2}-\alpha_2 v^{r_2}, \quad x\in\Omega, t>0,\\
&u(x,t)=v(x,t)=0, \quad x\in\partial\Omega, t>0,\\
&u(x,0)=u_0(x), \quad v(x,0)=v_0(x), \quad x\in\Omega.
\end{aligned} \tag{10}$$

sistema o‘rganilgan bo‘lib, u biologik talqinda ikki tur o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni ifodalaydi, bu yerda $p_i\ge 2$, $k_i,m_i\ge 1$, $q_i,r_i,\alpha_i\ge 0$ $(i=1,2)$ va $\Omega\subset R^N$ esa silliq chegara $\partial\Omega$ bilan chegaralangan sohadir. Bu yerda boshlang‘ich qiymatlar quyidagi shartlarni qanoatlantiradi $u_0(x),v_0(x)\in C^{2+\zeta}(\bar{\Omega})$, $0<\zeta<1$, $u_0(x),v_0(x)\ge 0$, $u_0(x),v_0(x)\not\equiv 0$.

(10) masalaga o‘xshash ikki karra nochiziqli parabolik tenglamalar turli sohalarda, jumladan biologiyada uchraydi. Ular g‘ovak muhitda no-Nyuton oqimlarning kontsentratsiyasi yoki yonuvchi moddalarning harorat taqsimoti kabi hodisalarni tavsiflaydi.

Ushbu masala uchun quyidagi $\mu_1=\max\{m_1+k_1(p_1-2),r_1\}$, $\mu_2=\max\{m_2+k_2(p_2-2),r_2\}$ belgilashlar kiritilgan.

10-teorema. *Agar $q_1q_2<\mu_1\mu_2$ bo‘lsa, u holda (10) masalaning barcha nomanfiy yechimlari global bo‘ladi.*

11-teorema. *Faraz qilaylik, $q_1q_2=\mu_1\mu_2$ bo‘lsin. U holda quyidagi xulosalar o‘rinli:*

1. Agar $r_1>m_1+k_1(p_1-2)$; $r_2>m_2+k_2(p_2-2)$ ya’ni $q_1q_2=r_1r_2$ bo‘lsa, u holda (10) masala yetarlicha kichik boshlang‘ich qiymatlarda global yechimga va yetarlicha katta α_1, α_2 ning qiymatlarida chegaralanmagan yechimga ega bo‘ladi.

2. Agar $r_1<m_1+k_1(p_1-2)$ va $r_2<m_2+k_2(p_2-2)$ bo‘lsa, ya’ni $q_1q_2=(m_1+k_1(p_1-2))(m_2+k_2(p_2-2))$, u holda (10) masala yetarlicha kichik boshlang‘ich qiymatlarda global yechimga ega.

3. Agar $r_1 < m_1 + k_1(p_1 - 2)$ *va* $r_2 > m_2 + k_2(p_2 - 2)$ *bo'lsa, ya'ni* $q_1q_2 = (m_1 + k_1(p_1 - 2))r_2$*, u holda (10) masala yetarlicha kichik boshlang'ich qiymatlarda chegaralanmagan yechimga ega.*

4. Agar $r_1 > m_1 + k_1(p_1 - 2)$ *va* $r_2 < m_2 + k_2(p_2 - 2)$ *bo'lsa, ya'ni* $q_1q_2 = r_1(m_2 + k_2(p_2 - 2))$*, u holda (10) masala yetarlicha katta boshlang'ich qiymatlarda chegaralanmagan yechimga ega.*

III bobning 2-paragrafida ushbu

$$\begin{aligned}
&\frac{\partial u}{\partial t} = \nabla\left(|x|^{n_1} u^{m_1-1}\left|\nabla u^{k_1}\right|^{p_1-2}\nabla u\right) + v^{q_1} - \alpha_1 u^{r_1}, \quad x\in\Omega,\ t>0,\\
&\frac{\partial v}{\partial t} = \nabla\left(|x|^{n_2} v^{m_2-1}\left|\nabla v^{k_2}\right|^{p_2-2}\nabla v\right) + u^{q_2} - \alpha_2 v^{r_2}, \quad x\in\Omega,\ t>0,\\
&u(x,t) = v(x,t) = 0, \quad x\in\partial\Omega,\ t>0,\\
&u(x,0) = u_0(x), \quad v(x,0) = v_0(x), \quad x\in\Omega.
\end{aligned} \tag{11}$$

o'zgaruvchan zichlikli nochiziqli manba va yutilishga ega diffuziya tenglamalar sistema o'rganilgan, bu yerda $p_i \ge 2$, $k_i, m_i \ge 1$, $n_i, q_i, r_i, \alpha_i \ge 0$ ($i = 1,2$) va $\Omega \subset R^N$ esa silliq chegara $\partial\Omega$ bilan chegaralangan sohadir. Yuqoridagi masaladagi boshlang'ich qiymatlar quyidagi shartlarni qanoatlantiradi $u_0(x), v_0(x) \in C^{2+\zeta}(\bar{\Omega})$, $0 < \zeta < 1$, $u_0(x), v_0(x) \ge 0$, $u_0(x), v_0(x) \not\equiv 0$.

12-teorema. *Faraz qilaylik* $n_1n_2 < p_1p_2$ *bo'lsin. Agar* $q_1q_2 < \mu_1\mu_2$ *bo'lsa, u holda (11) masalaning barcha nomanfiy yechimlari global bo'ladi.*

13-teorema. *Faraz qilaylik,* $n_1n_2 < p_1p_2$ *bo'lsin. Agar* $q_1q_2 > \mu_1\mu_2$ *bo'lsa, u holda (11) masalaning manfiy bo'lmagan yechimlari yetarlicha katta boshlang'ich qiymatlarda chegaralanmagan hamda yetarlicha kichik boshlang'ich qiymatlarda global bo'ladi.*

3-bobning 3-paragrafi (10) masalani sonli yechish va natijalarni vizuallashtirishga bag'ishlangan.

2-o'lchovli holda nochiziqli diffuziya masalasi $\Omega = [0,b_1]\times[0,b_2]$ sohada $t>0$ da qaralgan. Bunda (10) masala uchun quyidagi ifodaga ega bo'lamiz

$$\begin{aligned}
&\frac{\partial u}{\partial t} = \left(\frac{\partial}{\partial x_1}\left(u^{m_1-1}\left|\frac{\partial u^{k_1}}{\partial x_1}\right|^{p_1-2}\frac{\partial u}{\partial x_1}\right) + \frac{\partial}{\partial x_2}\left(u^{m_1-1}\left|\frac{\partial u^{k_1}}{\partial x_2}\right|^{p_1-2}\frac{\partial u}{\partial x_2}\right)\right) + v^{q_1} - u^{r_1},\\
&\frac{\partial v}{\partial t} = \left(\frac{\partial}{\partial x_1}\left(v^{m_2-1}\left|\frac{\partial v^{k_2}}{\partial x_1}\right|^{p_2-2}\frac{\partial v}{\partial x_1}\right) + \frac{\partial}{\partial x_2}\left(v^{m_2-1}\left|\frac{\partial v^{k_2}}{\partial x_2}\right|^{p_2-2}\frac{\partial v}{\partial x_2}\right)\right) + u^{q_2} - v^{r_2},
\end{aligned} \tag{12}$$

$$u(x_1,x_2,t)=0,\ v(x_1,x_2,t)=0,\ x\in\partial\Omega \tag{13}$$

$$u(0,x)=u_0(x)\geq 0,\quad v(0,x)=v_0(x)\geq 0,\ 0\leq x_i\leq b_i,\ i=1,2 \tag{14}$$

x_1 va x_2 uchun $h_1=\dfrac{b_1}{n_1}$ va $h_2=\dfrac{b_2}{n_2}$ qadamlar bilan quyidagi to‘rni

$$\bar{\omega}_h=\left\{x_{ij}=\left(x_1^i,x_2^j\right),\ x_1^i=ih_1,\ x_2^j=jh_2,\ i,j=0,1,...,n_\alpha,\ \alpha=1,2\right\},$$

vaqt bo‘yicha esa $\tau=\dfrac{T}{m}$ qadam bilan quyidagini hosil qilamiz

$$\bar{\omega}_\tau=\left\{t_l=l\tau,\ \tau>0,\ l=0,1,...,m,\ \tau m=T\right\},\ T>0$$

(12) masalani sonli yechish uchun Pismen Rekfordning o‘zgaruvchan yo‘nalishlar metodidan foydalanilgan:

$$\begin{cases}\dfrac{y_{i,j}^{l+1/2}-y_{i,j}^{l}}{0.5\cdot\tau}=\Lambda_1 y^{l+1/2}+\Lambda_2 y^{l}+\left(Y^{l}\right)^{q_1}-\left(y^{l}\right)^{r_1}\\ \dfrac{y_{i,j}^{l+1}-y_{i,j}^{l+1/2}}{0.5\cdot\tau}=\Lambda_1 y^{l+1/2}+\Lambda_2 y^{l+1}+\left(Y^{l+1}\right)^{q_1}-\left(y^{l+1}\right)^{r_1}\end{cases} \tag{15}$$

